



QADIMGI OROMIY TILI VA UNING O'RTA OSIYODA YOZUV SIFATIDAGI O'RNI

Komilova Sarvinoz Jasur qizi

UrDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi oromiy tili, uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tarixidagi o'rni keng yoritib beriladi. Tadqiqotda oromiy tilining shakllanish jarayoni, uning yozuv tizimi, grammatik xususiyatlari hamda boshqa tillarga ko'rsatgan ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, oromiy tilining qadimgi davlatlar boshqaruvida, savdo-sotiq aloqalarida va diniy matnlar yaratilishidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Uning keyingi davrlarda boshqa tillar, jumladan, ibroniy va arab tillari rivojiga ta'siri ham yoritiladi. Ish davomida oromiy yozuvining shakllanishi va uning asosida paydo bo'lgan alifbolar haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: semit tili, Doro I, Makedoniyalik Aleksandr, Qo'yqirilganqal'a.

Kirish: U yoki bu xalqning madaniy ahamiyati ko'p jihatdan uning yozuvi va tili bilan bog'liq. Qaysi davr bo'lishiga qaramasdan eng aniq bayonot beradigan manba ham aynan yozuv hisoblanadi. Ana shunday keng taraqqiy etgan yozuvlardan biri oromiy yozuvidir. Oromiy tili ko'p zamonlar o'sha o'zgarib tarkibini kirib borgan elatlar madaniyatiga moslashtirib bordi. Ayni paytda oromiy yozuvining o'zgarishi oromiy hujjatlarining tiliga mahalliy xalqlar tillari kuchli tasir etganini va oromiy va mahalliy xalqdan o'zlashitirilgan so'zlardan butun ibora paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin[1]. Nil daryosining quyi oqimidagi Elefantin orolidagi oromiy papirusi bunga dalolat.

Yaqin Sharqdan ko'tarilgan bu yozuv Janubiy-g'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo tarqalib, bu hududlar tarixi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qimmatbaho manba bo'lib shakllandi. Uning qamrab olgan hududi davri va etnik tarkiblanishiga ko'ra, til bir qancha nomlarga ajratiladi. O'rta oromiy, Janubi-g'arbiy oromiy, Qadimgi oromiy, Ahamoniylar davri oromiy yozuvlari shular jumlasidan[2]. Yozuvga tegishli tarixi manbalar xat yozishmalari, davlat xarajatlari, farmoyishlar va boshqa ko'plab hujjatlar ko'rinishida bizgacha yetib kelgan. Shuningdek miloddan avvalgi VI asrda ibroniy tilini bosib olgan oromiy yozuvida Muqaddas Kitob va Yangi Ahd qismlari yoziladi. Va til sifatida 650-yilgacha ya'ni arab tili kirib kelguncha amla xizmat qilgan[3].

Adabiyotlar tahlili: Oromiy yozuvi tarixi bo'yicha samarali olimlar



tadqiq qilgan va ularning yozgan asarlari bu til tarixi bo'yicha ilmiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Jumladan lingvistlar V. Livshits tadqiqotlari, Klaus Beyerning "The Aramaic Language: Its Distribution and Subdivisions" kitobidir. Beyer o'z bayonida oromiy tilini davrlarga bo'lib tahlil qilgan. Yana bir tadqiqotchi o'zbek olimlari Rtveladze, Saidov, Abdullayevlarning "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: Davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar" kitobida aynan tilning bizning Osiyo hududida yoyilishi chuqur tadqiq qilingan.

Metodologiya: Mavzuni o'rganishning asosiy sabab va maqsadi Oromiy yozuvi davlatchilik tarixidagi ahamiyatini yoritib berish va mavzu dolzarbligini ochiqalashtirish.

Tahlil va natijalar: Yozuv vujudga kelgan hudud Suriyaning qadimgi orom qabilalari bilan bog'liq. Oromiylar birinchi marta miloddan avvalgi 1112-yilda Ossuriya manbalarida aniq tilga olingan lekin shaxsiy nom va joy nomi sifatida miloddan avvalgi III-ming yillikda paydo bo'lgan[4]. Oromiy tili ilk bor miloddan avvalgi XI asrda vujudga kelib m.a. VIII asrda ossuriyaliklar o'zlashtiradilar. Keyinchalik Bobillik savdogarlar orqali tarqalishi tezlashadi. Bu yozuv finikiyaliklarnikiga o'xshash bo'lgan.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda o'rganib olish oson bo'lgan oromiy yozuvi (unda 22 undosh harfdan iborat bo'lgan) ilgari O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan mixxatning beso'naqay tizimini siqib chiqardi. Oromiy tili Ahamoniylar davrida keng qo'llanila boshlagan. Qadimgi oromiy tili bu davrga kelib tarkibi o'zgaradi va yozuv uslubiga o'tadi.

Aynan Ahamoniy davlati qulashi arafasida va milodning IV asrigacha Yaqin Sharqning tijorat, rasmiy va adabiy tili bo'lib qoldi. Ahamoniylar imperiyasining barcha satrapliklarida - Kichik Osiyodan Janubi-g'arbiy Hindistongacha shu jumladan O'rta Osiyoda oromiy tili muomalaning asosiy vositasi, ma'muriy boshqaruv va idora ishlari yuritiladigan tilga aylangan. Oromiy tilda yozilgan yorliqlar imperiyaning harbir satrapligiga yuborilgan va ularni oromiylardan bo'lgan mirzolar o'qib bergan. Aynan shu amaliyot keyinchalik tilni keng tushunib xalq orasida o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan. Ahamoniy hukmdor Doro I ning Behistun qoyatosh tasviri akkad mixxatida yozilgan va unda O'rta Osiyo qabilalari ta'riflanadi.

Masalan tadqiqotlar davomida Shimoliy Xorazmdan topilgan oromiy tilidagi va xorazm yozuvi sopolga yozilgan bo'lib til tarkibi o'zgarib kelganini ko'rsatadi. Yana shunday miloddan avvalgi IV-III asrga oid Qo'yqirilganqal'adagi ayrim ayrim yozuvlar ham shunga o'xshash.

Ahamoniylar Makedoniyalik Aleksandr yurishidan egallangach davlatda hujjat ishlari yuritishda yunon yozuvi va tili qo'llanilsa ham O'rta Osiyoda oromiy kanselyariyasi saqlab qolingani[5].



Baqtriya-oromiy yozuvi eramizning birinchi yuz yilligida Kushonlar hukmronligi vaqtida Termizda mavjud bo'lgan. Livshitsning aniqlashicha, Fayoztepadagi budda kompleksi qazishma jarayonida Albaum tomonidan topilgan sopol parchasiga bitilgan bittagina so'z bunga dalolat[6]. Kanishka I davri tangalari yunon tilida bitilgan bo'lib u tangalarda yunon xudolari nomlarini keltirgan. Bunday tanga Surxko'taldan 20km uzoqlikdagi hududdan topilgan[7]. Yunon-Baqtriya hukmdori Yevtidem davrida Buxoro Sug'dida muomalada bo'lgan tanga puldagi matn ham sug'd tilida emas balki oromiy tilda bitilgan. Matnda odatda podsho nomi va unvoni sug'd so'zi bilan emas balki oromiyda bitilgan[8]. Baqtriya yozuvida yagona sahifa topilgan bu Baqtriyaning Turfan viloyatida qazishmalardan topiladi[9]. Baqtriya yozuvining o'ziga xos jihati yozuv oxirida unlisi bo'lmaydi. Mill.avv. III-II asr chegaralarida oromiy yozuvi-kvadrat, yahudiy, nabatiy va palmir kabi turlarga bo'linib ketadi. Yunon yozuvi kirib kelgach esa uni butun O'rta Osiyoda yoyilishi kutilgan edi lekin, oromiy tili mustahkam o'rnashib bo'lgan edi. Oromiy yozuvi keyinchalik yangi birikmalar bo'lgan Xorazm, Sug'd va ko'plab yozuvlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, qadimgi oromiy tili semit tillari oilasining muhim tarmoqlaridan biri sifatida Yaqin Sharq tarixida beqiyos o'rin egallagan. Ilmiy tadqiqotlar, xususan, Josef Naveh, Klaus Beyer, Edvard Lipinski hamda John F.Healey kabi olimlarning asarlarida oromiy tilining shakllanishi, dialektlari va yozuv tizimi chuqur tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, oromiy tili miloddan avvalgi I ming yillikda diplomatik va ma'muriy aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilgan hamda bir necha imperiyalar hududida rasmiy ish yuritish tili darajasiga ko'tarilgan.

Tarixiy manbalarda, ayniqsa, Behistun qoyatoshi kabi yozma yodgorliklar orqali oromiy tilining davlat boshqaruvida tutgan o'rni tasdiqlanadi. Bundan tashqari, Elefantin orolidagi papirus hujjatlari oromiy tilining huquqiy va ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, oromiy yozuvi keyinchalik ibroniy, nabatiy va boshqa alifbolarning shakllanishiga asos bo'lganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi.

Oromiy tilining keng hududlarda tarqalishi uning soddalashtirilgan yozuv tizimi va moslashuvchan grammatik tuzilishi bilan ham izohlanadi. U uzoq vaqt davomida turli etnik guruhlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, diniy matnlar, jumladan, qadimgi yahudiy va nasroniy manbalarining ayrim qismlari oromiy tilida yozilgani uning madaniy va ruhiy hayotdagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Э.В.Ртвеладзе А.Х.Саидов Е.В.Абдуллаев. Кадимги Ўзбекистон



- цивилизацияси: давлатчилиги ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Адолат 2001. Бет-96
2. Klaus Beyer. The Aramaic Language: Its Distribution and Subdivisions.- Germany: Vandenhoeck & Ruprecht 1986.
 3. J. Jan. Istoriya pismennosti i knigopечатaniya. Moskva, “AST”. 2005. Str. 26
 4. Симс-Уильямс, Николас и Крибб, Джо «Новая бактрийская надпись Канишки Великого», «Искусство и археология Шелкового пути» - 1996. С-4, 75–142.
 5. Лившиц В.А. , Луконин В. Г. Среднеперсидские и согдийские надписи на серебряных сосудах.- ВДИ. – 1964.С.167
 6. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М., 1977.
 8. Зеймаль Е.В. Амударьинский клад. Каталог выставки. – Л., 1979.
 9. Ahn, Elise S., Smagulova, Juldyz. Language Change in Central Asia. - Boston: De Gruyter Mouton. 2016.
 10. Литвинский Б.А., Виноградов. Ю.Р., Пичикян И.Р. Вотов Атросока из храма Оска в Северной Бактрии. – ВДИ. 1985